



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRINING**  
**BUYRUG'I**

**O'zbekiston Respublikasi pochta to'lovining davlat belgilari to'g'risidagi nizomga**  
**o'zgartirishlar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasining 2013-yil 21-oktabrdagi 58-mh-son qarori (ro'yxat raqami 2529, 2013-yil 22-noyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 47-son, 624-modda) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi pochta to'lovining davlat belgilari to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Вазир**

Тошкент ш.  
2023 йил 15 май,  
245-мh-сон



**Shermatov Sh. X.**

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli  
texnologiyalar vazirining  
2023-yil 15-maydagi 245-mh-son  
buyrug‘iga  
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi pochta to‘lovining davlat  
belgilari to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. 1-banddagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi” degan so‘zlar “Raqamli texnologiyalar vazirligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. 15-bandda:

beshinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Pochta emissiyalari bo‘yicha komissiya Raqamli texnologiyalar vazirining o‘rinbosarlaridan biri tomonidan boshqariladi, uning tarkibiga Vazirlik, milliy operator, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hamda boshqa tegishli vazirliklar va idoralarning mutaxassisleri, O‘zbekiston filatelistlari jamiyatining vakillari kiritilishi mumkin.”;

sakkizinchi xatboshidagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri” degan so‘zlar “Raqamli texnologiyalar vaziri” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. 19-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziriga” degan so‘zlar “Raqamli texnologiyalar vaziriga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4. 29-bandning birinchi xatboshisi, 51-bandning ikkinchi xatboshisi va 52-bandning birinchi xatboshisidagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri” degan so‘zlar “Raqamli texnologiyalar vaziri” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.